



**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA  
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI  
O'QITISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Ravshanova Dilshoda Mengziyoyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439778>

**ARTICLE INFO**

Received: 04<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 13<sup>th</sup> December 2022

Online: 14<sup>th</sup> December 2022

**KEY WORDS**

Texnologiya fani,  
kompetensiyaviy yondashuv,  
pedagogik mexanizm,  
intellektual qobiliyat, axborotli  
o'qitish.

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari, kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi haqida batafsil bayon etilgan.*

**Kirish:** Kommunikativ axborot tizimining kun sayin kengayib, ma'lumotlarning keskin oshib borayotgani, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, o'sib kelayotgan avlodni hayotga har tomonlama mukammal tayyorlash talab-ehtiyojlari, ayni paytda, jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan, istiqbolli rejasini ishlab chiqish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish o'quv tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik

"noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Har bir dars o'quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijodiy



ko'nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim. Texnologiya malakalari ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o'rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini sistematik sur'atda tushuntirib berish zaruriyati bilan birga qo'shib olib boriladi.

Texnologiya darslarida o'quvchilar ishlarini kuzatish natijasida o'quvchilarni topshiriqlarni olib, buyum narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namunani uning qurilishi nuqtayi nazardan sinchiklab qarab chiqib, buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar.

#### **Natijalar:**

Mustaqil mashg'ulot soatida asosiy faol shaxs bolalar hisoblanadi. Lekin bunga qaramay darsning bu bosqichida ham o'qituvchining vazifasi benihoyat katta mas'uliyatdir. Bunday mashg'ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko'rsatib qo'ya qolish kifoya, bolalar erkin ishlashi kerak deb o'ylash katta xato bo'ladi. O'qituvchi mumkin qadar kamroq so'zlashi, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o'quvchilarga sezdirmay ularning xarakterini kuzatish, o'rniga qo'yib gapirishni yoki jim turishni o'rganishi lozim.

Qoloq o'quvchini yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchiga biriktirib qo'yish kerak. Masalan, tikishda o'g'il bolalar odatda orqada qoladilar, ularga qizlar yordamida biriktirib qo'yiladi, aksincha texnikaviy modellashda o'quv tajriba hovlisidagi ishlarda bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak. Shu tarzda o'quvchilarda o'rtoqlarcha o'zaro yordam hissi tarbiyalanadi.

Texnologiya natijalarini birgalikda tekshirish va baholash bolalarning

xotiralarida ma'lum bir buyumni tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir. Texnologiyadan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani, avvalo, darsda ishni yaxshi uddalay olmagan o'quvchilarga berish zarur.

Hozirgi kunda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini innovatsion jarayonlarsiz, ta'lim tizimini esa kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yangiliklar markazida o'quvchi ta'lim jarayonining sub'yekti faol ishlovchiga aylanadi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda.

**Muhokama:** Ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarini namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqiyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan



olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

-materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

-texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umum mehnat operatsiyalarini bilish;

-texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umum mehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

-texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

-texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

-buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

-ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

**Xulosa:**Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, demak umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

### References:

1. Qodirov B.F., Yuldoshev U.Y. Ta'limni texnologiyalashtirishga oid «Pedagogik ta'lim».-T.: 2000.
2. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
3. Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.
4. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P «Boshlang'ich sinfiarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o'quv-metodik qo'llanma 2009.
5. Sanaqulov X, Xodiyeva D, Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" T., "Nafis bezak" 2013.